ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

YER BILAN “GAPLASHAYOTGAN” YOSHLAR HAMDA XALQARO TAJRIBALAR, KOOPERATSIYA IMKONIYATLARI

YOUTH "TALKING" TO THE EARTH AND INTERNATIONAL EXPERIENCES, OPPORTUNITIES FOR COOPERATION

Karimov Sherzod Xasanovich
Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparati
“Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish bo‘limi”
bosh mutaxassisi
Karimov Sherzod
Chief Specialist, “Department of Youth
Employment and Entrepreneurship Support”
Central Office of the Youth Affairs Agency
Каримов Шерзод Хасанович
Центральный офис Агентства по делам молодежи
«Департамент занятости молодежи и поддержки предпринимательства»
главный специалист
email: sher_hon@mail.ru

Ismonova Xilola Abdujamil qizi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Agrobiznes yo‘nalishi magistranti
Ismonova Khilola Abdujamil qizi
Higher School of Business and Entrepreneurship
under the Cabinet of Ministers
Master's student in Agribusiness
Исмонова Хилола Абдуджамиловна
При Кабинете Министров
Высшая школа бизнеса и предпринимательства
Степень магистра в области агробизнеса
email: navruzbek269@gmail.com

Xulosa va takliflar: Yoshlarga yer ajratilishi ular o‘z bizneslarini boshlashlari, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik yoki bog‘dorchilik sohalarida faoliyat yuritishlari uchun kuchli turtki bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, bandlikni oshirishga va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Faqat yer ajratish yetarli emas. Yoshlarga ushbu yer maydonlarini samarali boshqarish uchun texnik ko‘nikmalar va moliyaviy yordam kerak. Masalan, subsidiyalar, kreditlar yoki texnologik qo‘llab-quvvatlash dasturlari bo‘lishi muhim. Yer maydonlaridan maqsadli foydalanish va belgilangan loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash uchun mas’uliyatli nazorat mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.
Bunda, xalqaro tajriba va xulosa sifatida ikkita davlatni misol qilib keltirish mumkin. Hindiston tajribasi - Hindistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun yer maydonlari yosh fermerlarga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

ajratiladi. Hukumat ularga subsidiyalar, texnik qo‘llab-quvvatlash va marketing xizmatlarini taqdim etadi. Bu, qishloq iqtisodiyotini rivojlantirishda ijobiy natija bermoqda. Afrika davlatlari: Afrika davlatlarida yosh tadbirkorlar uchun yer ajratilishi qishloq joylarda yashashni rag‘batlantirishning muhim qismidir. Misol uchun, Keniya va Tanzaniyada yosh fermerlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Kooperatsiyalar, ayniqsa, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, resurslarni birlashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda samarali vositadir. Xalqaro tajribadan o‘rganilgan holda, kooperatsiya tashkilotlarini rivojlantirish uchun ta’lim va ma’lumot yetkazish, va huquqiy asoslarni takomillashtirish zarurligi hamda moliyaviy yordam dasturlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Conclusions and recommendations: Allocating land to young people is a strong incentive for them to start their own businesses, especially in the agricultural, livestock or horticultural sectors. This, in turn, contributes to increased employment and economic development. Land allocation alone is not enough. Young people need technical skills and financial support to effectively manage these land plots. For example, it is important to have subsidies, loans or technological support programs. Responsible control mechanisms should be developed to ensure the targeted use of land plots and the implementation of established projects.

In this regard, two countries can be cited as examples of international experience and conclusions. Indian experience - In India, land plots are allocated to young farmers for agricultural development. The government provides them with subsidies, technical support and marketing services. This is giving positive results in developing the rural economy. African countries: In African countries, land allocation for young entrepreneurs is an important part of encouraging living in rural areas. For example, in Kenya and Tanzania, special programs have been developed for young farmers. Cooperatives are particularly effective in developing small and medium-sized businesses, pooling resources, and ensuring economic stability. International experience suggests that education and information, improving the legal framework, and creating financial support programs are essential for the development of cooperative organizations.

Выводы и рекомендации: Выделение земли молодым людям станет для них мощным стимулом начать собственный бизнес, особенно в сфере сельского хозяйства, животноводства или садоводства. Это, в свою очередь, будет способствовать повышению уровня занятости и экономическому развитию. Недостаточно просто выделить землю. Молодым людям необходимы технические навыки и финансовая поддержка для эффективного управления этими землями. Например, важно иметь субсидии, кредиты или программы технологической поддержки. Необходимо разработать ответственные механизмы контроля, обеспечивающие целевое использование земель и реализацию намеченных проектов.

В этой связи в качестве примеров международного опыта и выводов можно привести две страны. Опыт Индии. В Индии молодым фермерам выделяют землю для развития сельского хозяйства. Правительство предоставляет им субсидии, техническую поддержку и маркетинговые услуги. Это оказывает положительное влияние на развитие сельской экономики. Африканские страны: В африканских странах выделение земли молодым предпринимателям является важной частью стимулирования сельской жизни. Например, в Кении и Танзании разработаны специальные программы для молодых фермеров.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Кооперативы являются эффективным инструментом, особенно для развития малого и среднего бизнеса, объединения ресурсов и обеспечения экономической стабильности. Изучая международный опыт, важно обеспечивать образование и информацию, совершенствовать правовую базу и создавать программы финансовой помощи для развития кооперативных организаций.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, yer maydoni, gektar, tonna, e-ijara, e-auksion, yer ajratish, xalqaro tajriba, kooperatsiya, bandlik.

Keywords: Youth, land area, hectare, ton, e-lease, e-auction, land allocation, international experience, cooperation, employment.

Ключевые слова: Молодежь, земельная площадь, гектар, тонна, электронная аренда, электронный аукцион, отвод земли, международный опыт, сотрудничество, занятость.

Bugun mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu imkoniyatdan foydalanib, ular o‘zlarini barcha sohalarda alohida iqtidorga ega ekanligini namoyon etmoqda. Jumladan, navqiron avlod vakillari yer bilan tillashib, daromad olishda ham jonbozlik ko‘rsatishmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi va g‘amxo‘rligi tufayli yoshlarga yer ajratilayotganligi mazkur yo‘nalishdagi o‘ziga xos yangilik bo‘ldi, deyish mumkin.

Jumladan, Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi **“Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 153-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida joriy yilda yoshlarga **60 ming gektar** yer maydonlarini dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun elektron onlayn-auksion savdolari orqali ustuvor ravishda yoshlarga ijaraga berish ko‘zda tutilgan.

Mazkur hujjatga asosan, tuman hokimliklari zaxirasidagi jami **60 ming gektar** yer maydoni elektron onlayn-auksion savdolariga qo‘yilib, dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun ustuvor ravishda yoshlarga ijaraga berilishi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo‘lgan zanjirni qamrab oluvchi yangi tizim joriy etildi.

Bunda yoshlarimizga ajratilgan yer maydonlari mablag‘larini 10 yil davomida foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi, zakalat puli esa bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari etib belgilangan. Ushbu yer maydonlaridan yoshlarimiz sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko‘katlar, makkajo‘xori doni, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirish uchun sug‘oriladigan ekin maydonlari, bog‘dorchilik-uzumchilik yo‘nalishlari uchun ko‘p yillik daraxtzorlar yoki samarasiz bog‘lar yer maydonlari, dorivor o‘simliklar yetishtirish va chorvachilik uchun mo‘ljallangan yerlarni 30 yilgacha ijaraga olishlari mumkinligi belgilab berildi.

Xususan, ushbu qaror ijrosi bo‘yicha 2024-yil davomida Qishloq xo‘jaligi vazirligi “O‘zdavyerloyiha” DILI tomonidan hududlarda belgilangan tartibda tumanlar hokimliklari zaxirasiga olingan **“E-ijara”** AT orqali kelib tushgan jami **61 330 gektar** yer maydonlari **161 674 ta** lotlarda yer tuzish loyihalari ishlab chiqilib, **“E-AUKSION”** elektron auksion savdolariga chiqarildi.

Shuningdek, **“Mahalla yettiligi” tavsiyasiga asosan** dehqon xo‘jaligi tashkil etish maqsadida **224 182 nafar** talabgor yoshlar tizimga kiritildi. Shundan, dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun **152 897 nafar** yoshlarga **56 171 gektar** yer maydonlari ajratilib, ular qishloq xo‘jaligi ekinlari to‘liq ekib ushbu maydonlardan **1,2 mln tonna** mahsulotlar yetishtirishga erishildi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Hududlarda yoshlarga ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilinganda ko‘plab mahallalardagi yoshlarni misol qilib keltirsak bo‘ladi.

Jumladan: Toshkent viloyati, Piskent tumani, Chimqo‘rg‘on MFYda **10 gektar** yer maydonlari dehqonchilik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan **20 nafar** yoshlarga **50 sotix**dan bo‘lib berilgan bo‘lib, **“Bir mahalla-bir mahsulot”** tamoyili asosida pomidor ekini ekilib yuqori daromad olib kelinmoqda.

Bu kabi misollar juda ko‘p. Eng muhimi, bunday xayrli ishlar keng quloch yoyib, yoshlarimizni mehnatsevarlikka, yer bilan tillashishga, shu orqali nafaqat oilasi, balki mahalla kuyga ham nafi tegmoqda. Islohot inson uchun, degan g‘oyadan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shu, aslida.

Yer maydonlaridan unumli foydalanish bo‘yicha xalqaro tajribalar turli mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik, ekologiya va iqtisodiyot sohalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Quyida ayrim asosiy Xalqaro tajribalar keltiriladi.

1. Qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirish:

- **Isroil tajribasi:** Tomchilatib sug‘orish texnologiyalari va Isroilning cheklangan suv resurslariga ega bo‘lishiga zamin yaratish;
- **Gallandiya:** Vertikal dehqonchilik. Gidroponika va vertikal fermalar yordamida maydonlardan foydalanish tartibi.

2. Urbanizatsiyada yer maydonlaridan foydalanish:

- **Singapur:** Yer maydonlari tanqisligi sababli ko‘p funksiyali yer maydonlaridan foydalanish tartibi;
- **Germaniya:** “Yashil tom” texnologiyasi asosida shahar hududlarida binolar tomlariga yashil maysalar ekish tartibi.

3. Yer degradatsiyasiga qarshi kurash:

- **Xitoy:** “Yashil devor” loyihasi.
- **Avstraliya:** Tuproqni saqlash usullari va ulardan samarali foydalanish tartibi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish:

- **Yaponiya:** Aqlli texnologiyalar bilan boshqariladigan yer resurslari tartibi;
- **AQSh:** Kooperativ qishloq xo‘jaligini tashkil etish tartibi.

KOOPERATSIYAdan foydalanish tartibi va xalqaro tajribalar haqida umumiy ma’lumotni tushuntirishdan oldin, asosiy tushunchalarga e’tibor qaratamiz.

Kooperatsiya nima?

Kooperatsiya - bu bir guruh odamlarning o‘zaro manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun tuzilgan tashkilotdir. Bu tashkilot odatda a’zolar o‘rtasida teng huquqli bo‘lib, birgalikda moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarni boshqaradi.

Kooperatsiyadan foydalanish tartibi:

A’zolik: Kooperatsiyaga a’zo bo‘lish uchun odatda kooperativning qoidalari va shartlariga rioya qilish kerak. Har bir a’zoning tashkilotda ovoz berish huquqi bo‘ladi (odatda “bir a’zo – bir ovoz” prinsipi asosida).

Majburiyatlar va huquqlar:

A’zolar belgilangan badallarni to‘lash yoki ulush qo‘shish orqali kooperativ faoliyatiga moliyaviy yordam beradi.

A’zolar o‘z huquqlarini, jumladan daromadni taqsimlash va boshqaruvda qatnashishni amalga oshiradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

Moliyaviy boshqaruv:
Daromad va foyda kooperativning barcha a'zolari o'rtasida adolatli taqsimlanadi.
Buxgalteriya hisobi va kooperativ moliyaviy resurslarini boshqarishning shaffofligi ta'minlanadi.
Ma'muriy boshqaruv:
Kooperativ a'zolari o'z vakillarini saylaydi, ular esa boshqaruv va nazorat organlarini shakllantiradi. Yillik yig'ilishlarda muhim qarorlar qabul qilinadi.

Bu borada, Xalqaro tajribalar:
Kooperatsiya dunyo bo'ylab turli tarmoqlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Quyida ayrim mamlakatlardagi misollar keltirilgan:
Fransiya va Italiya: Kooperativlar agrar sohada keng qo'llaniladi. Dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish, marketing, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalarida muhim rol o'ynaydi.
Germaniya: Kredit kooperativlari mashhur. Ular aholiga kichik qarzlar berish, biznesni moliyalashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda katta yordam beradi.
AQSh: Kooperativlar elektr energiyasi, suv ta'minoti va kredit sohalarida keng tarqalgan. Qishloq joylarda elektr energiyasini ta'minlash uchun tuzilgan elektr kooperativlari muvaffaqiyatli namunadir.
Yaponiya: Qishloq xo'jaligi kooperativlari o'z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga sotishda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu kooperativlar texnik yordam va ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi.
Skandinaviya mamlakatlari: Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada kooperativlar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash sohasida katta muvaffaqiyatga erishgan.
Hindiston: Sut ishlab chiqarish kooperativlari (masalan, "Amul" brendi) yirik muvaffaqiyatga erishgan. Ular kichik fermerlar va chorvadorlarni tashkil qilib, mahsulotni bozorga chiqishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevral kungi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–37-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yi 5-aprel kungi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son qarori.
3. lex.uz, stat.uz, yoshlar.gov.uz saytlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar.
4. Ismoilov B.X. "O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xalqaro standartlarni joriy etish usullari" Toshkent, 2012y.
5. Qishloq xo'jaligidagi kooperatsiya tizimi, uning faoliyati, rivoji va kafolatlari O'zbekiston Respublikasining "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonuni *(14.06.1991-yil, 295-XII-son)*.
6. Xushvaqtov R.B., Ro'ziyev Z.I. Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish.